

MUSTAQIL TA'LIMNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Abduraxmanov Zafar Batirovich.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va zaruriyati asoslangan, kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning hozirgi holati tahlil etilgan.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda telekommunikatsiya o'quv loyihalaridan foydalanish bo'yicha loyiha mazmuni yoritilgan. Telekommunikatsiya o'quv loyihalarining mazmun-mohiyati, uning turlari, telekommunikatsiya loyihalarini samarali tashkil etish yo'llari va bosqichlari hamda tashqi baholashni tashkil etish metodikasi ochib berilgan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun yaratilishi loyihalananayotgan telekommunikatsiya o'quv loyihasining xorijiy analoglardan farq qiladigan mezonlari va loyihani amalda qo'llash natijasida erishiladigan natijalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, kredit tizimi, mustaqil ta'lim, telekommunikatsiya, baholash, xalqaro, indikator.

COVID-19 pandemiyasining butun dunyo bo'ylab tarqalishi va keskin karantin choralarini tadbiiq etilishi barcha davlatlarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida masofaviy o'qitishni yo'lga qo'yilishini talab etdi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham uzluksiz ta'lim tizimining barcha sohalarida masofaviy o'qitish yo'lga qo'yildi. Karantin davrida o'rta ta'lim uchun televideniye orqali maxsus dasturlar asosida o'quv mashg'ulotlar tashkil etildi, oliy ta'limda esa Moodle, Zoom dasturiy tizimlari hamda konferensiya-aloqa orqali mashg'ulotlar hamda talabalar bilimi nazorati o'rnatildi. Bu bir tomondan ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining qay holatda ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan raqamli texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanish sur'atini oshirdi hamda raqamli texnologiyalar oliy ta'limda kelajak texnologiyasi ekanligini yana bir bor isbotladi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida 2019-2020 o'quv yilidan kreditmodul tizimining joriy etilishi, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalarini tubdan qayta ishlab chiqishni taqoza etdi. Hozirgi kredit-modul tizimi asosidagi bakalavr ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasida mutaxassislik fanlariga ajratilgan umumiy o'quv yuklamaning 50-60 foizi, magistratura mutaxassisliklarida esa 70 foizga yaqini mustaqil ta'limga ajratilgan. Lekin, mustaqil ta'lim asosan mavzu bo'yicha referatlar tayyorlash yoki mavzuni konspektlashtirish topshiriqlari berish orqali bajarilmoqda. Bunga mavzu bo'yicha annotatsiya yoki taqriz yozishni ham qo'shsa

bo‘ladi va bu oz bo‘lsada talabalarni mustaqil ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi. Ushbu an’anaviy metodlar ancha eskirganligi sababli innovatsion ta’lim muhitida yaxshi samara bermayapdi. Shu sababli, oliy ta’limda fanlardan mustaqil ta’limni raqamli texnologiyalar, jumladan “Telekommunikatsiya o‘quv loyihalari” texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etish tavsiya etiladi.

Telekommunikatsiya loyihalari rivojlangan xorijiy davlatlarda o‘tgan asrning 80-yillarida yuzaga kelgan va fan hamda o‘quv sohalarida aloqaning qulay va tezkor usuli sifatida foydalanila boshlangan [2]. Xalqaro tajribalarning ko‘rsatishicha, oddiy yozishma asosidagi telekommunikatsion loyihalarga nisbatan maxsus tashkil etilgan va aniq maqsadga qaratilgan loyihalar katta pedagogik natijaga olib keladi. Turli shaharlar, mintaqalar va davlatlar talabalarining tarmoqdagi birgalikdagi o‘quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli o‘quv telekommunikatsiya loyihalari hisoblanadi.

Telekommunikatsiya o‘quv loyihalari bu televideniye orqali beriladigan mashg‘ulotlar emas. Telekommunikatsiya o‘quv loyihalari Internet tarmoqlari orqali kompyuter asosida tashkil etiladigan, umumiy muammo, maqsad, kelishilgan uslublar va faoliyat usullariga ega, faoliyatning birgalikdagi natijasiga erishishga yo‘naltirilgan talabalarining hamkorlikdagi o‘quv, tadqiqiy, ijodiy, ilmiy va o‘yinli faoliyati tushuniladi [3]. Ushbu o‘quv loyihasi loyihaviy metodning bir turi hisoblanadi. O‘qitishda loyihaviy metotdan foydalanishning maqsadi talabalarni oliy ta’limda o‘qish davrining dastlabki bosqichlaridayoq ijodiy, ilmiy-tadqiqot faoliyatga jalb etishdan iboratdir.

Telekommunikatsiya o‘quv loyihalari raqamli texnologiyalardan hisoblanib, innovatsion ta’lim muhitida muhim o‘rin egallaydi. Telekommunikatsiya o‘quv loyihalarida axborot almashinish yozma variantda olib boriladi. Bu talabalarga o‘z fikri ustida yaxshi o‘ylash, uni tahrir qilish imkonini ham beradi va uning bilish faoliyatida, muomala madaniyatini shakllanishida ijobiy rol o‘ynaydi. Telekommunikatsiya loyihalarini oliy ta’lim muassasasi yoki davlat doirasida hamda hamkor xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan xalqaro loyiha shaklida tashkil etish mumkin.

Ushbu modelning oliy ta’limda o‘qish davrida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish blokining asosiy komponentlaridan biri o‘quv jarayonini tashkil etish tizimi bilan belgilanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekiston oliy ta’limi o‘quv jarayonida kreditmodul tizimining qo‘llanilishi hamda bu tizimda talabalarining o‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyili asosida mustaqil ta’limga alohida e’tibor qaratilishi mustaqil ta’limni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishni taqoza etadi. Shu sababli, mazkur tadqiqotda oliy ta’limda fanlardan mustaqil ta’limni raqamli texnologiyalarga asoslangan telekommunikatsiya o‘quv loyihalari asosida tashkil etish loyihasi ishlab chiqilgan.

Ushbu loyiha ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, nafaqat ta'lim, balki tarbiyaviy sohada ham o'z o'rniga ega, ya'ni loyihada faoliyat yuritayotgan talabalar bir-birini tushunishga, o'z galar fikrini hurmat qilishga, o'z fikrini erkin bayon qilishga va birgalikda muammolarni hal etishga o'rganishadi. Ayniqsa, loyihalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi hamkor oliy o'quv yurtlari bilan tashkil etilganda milliy va etnik, ijtimoiymadaniy qadriyatlarni hisobga olish, ularga hurmat yuzasidan qarash sharti saqlanishiga e'tibor berish lozim. Mazkur loyihaning o'quv jarayoniga tadbiiq etilishi, birinchidan mustaqil ta'lim sifatini oshirsa, ikkinchidan loyiha orqali xalqaro ta'lim sohasiga kirib borishga, xorijiy talabalar bilan hamkorlikda ishlashga sharoit yaratadi.

Telekommunikatsiya o'quv loyihalarida muammo yechimi integratsiyalashgan bilimni talab etadi [5]. Ayniqsa xalqaro loyihalarda ancha chuqurlashgan bilimlar integratsiyasini, nafaqat tadqiq qilinayotgan muammo yuzasidan fan bilimlari sohasini, balki hamkorning milliy madaniyati xususiyatlarini, uning falsafiy dunyoqarashi va tushunishlarini bilishga ham olib keladi, bu esa talabalarda dialog madaniyatini shakllanishiga olib keladi. Hozirgi kunda AQSH Ogayo shtati Illinoysk universiteti professori V.Gezerud ko'p yillardan buyon tarmoq loyahasini olib boradi va unda 40 ga yaqin davlatlardan yoshlar ishtirok etishadi. O'zbekiston talabalarining xalqaro telekommunikatsiya o'quv loyihalarida keng qatnashishlari uchun asosiy to'siq chet tilini bilish darajasi hisoblanadi.

Telekommunikatsiya o'quv loyihalarini samarali tashkil etishda quyidagilar tavsiya etiladi: qo'yilgan muammoni yechish uchun tabiiy, fizik, ijtimoiy va boshqa hodisalar ustidan ko'p, tizimli, bir martalik yoki uzoq davomli kuzatish, turli mintaqalardan ma'lumotlar to'plash; turli joylarda yuzaga keladigan hodisalar, dalillar, voqealarning aniq tendensiyasini aniqlash uchun taqqoslab o'rganish, qarorlar qabul qilish va takliflar ishlab chiqish; loyiha qatnashchilarining madaniy, etnik, geografik shartlari o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda bir muammo yoki masala yechimi yo'llarining (alternativ yoki turli usullarini) samaradorligini taqqoslab o'rganish; o'ziga xos madaniy, an'anaviy, diniy xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy va madaniy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish; birgalikda ma'lum bir muammoni hamkorlikda tadqiq qilish sharti bilan biror bir (amaliy, ijodiy, ilmiy va b.) ijodiy g'oyani ishlab chiqish; qiziqarli, sarguzashtli kompyuter o'yinlari va musobaqalarini o'tkazish va bunda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni madaniy, ta'limdagi an'analar, sport sohasi bilan bog'liq bo'lishiga qaratish.

Telekommunikatsiya loyihalarni nafaqat xalqaro, balki mintaqaviy yoki bir davlat doirasida tashkil etish ancha keng ri-vojlangan. Chunki bunda loyihani tashkil etishdagi til bo'yicha to'siq bo'lmaydi, lekin milliy va etnik, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni hisobga olish, ularga hurmat yuzasidan qarash sharti saqlanib qoladi.

Loyihaning himoyasi dastlab mashgʻulot vaqtida har bir hamkor oʻquv muassasasida, keyin esa forumda yoki taʼlim muassasidan bi-rining veb saytiga oʻz taqdimot materiallarini joylashtirish orqali tashkil etiladi.

Hamkorlar taqdim etilgan materiallar boʻyicha forumda savollar berishlari va tegishli javoblar olishlari mumkin.

Ijodiy loyihalarda koʻpincha oraliq natijalarni baholash imkoniyati boʻlmaydi. Lekin, baribir ishni nazorat qilib borish zarur va talab etilgan taqdirda yordam va koʻrsatmalar berilishi kerak (albatta tayyor yechim sifatida emas, balki maslahat sifatida). Tashqi baholash oraliq yoki yakuniy tashqi baholash shaklida va koʻp omillarga bogʻliq holda zarur hisoblanadi. Oʻqituvchi hamkorlikdagi loyiha jarayonining doimiy monitoringini olib borishi kerak. Loyiha himoyasi vaqtida uning natijalarini baholash maqsadida ushbu soha boʻyicha eng iqtidorli talaba yoki boshqa oʻqituvchi tashqi ekspert sifatida tanlab olinadi. Yoki, loyiha boshida ushbu loyiha boʻyicha faoliyat olib borayotgan turli guruhlar ishini baholash hamda monitoringini olib borish uchun maxsus ekspertlar guruhi shakllantiriladi.

Telekommunikatsiya oʻquv loyihalarini oʻquv jarayonida tadbiiq etilishi oʻquvchilarda eng muhim malaka: axborotlarni rejalashtirish, olish, qayta ishlash, tahlil qilish va yozma hisobot yozish qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi. Shuningdek, oʻz ishiga ijobiy yondoshish, ishni oʻz vaqtida bajarish, javobgarlikni sezish, hamkorlikda hamda guruhda ishlash malakalarini shakllantiradi [7]. Oʻquv telekommunikatsiya loyihalarini tashqi baholashni tashkil etish.

Telekommunikatsiya loyihalarini tashqi baholashni oʻz vaqtida, toʻgʻri tashkil etish loyiha samaradorligi va olingan natijalarning amaliyligiga taʼsir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki bu bilan ish jarayonida va loyiha himoyasi vaqtida kerakli tuzatishlar kiritish imkoniyati yaratiladi. Tashqi baholash xarakteri loyiha turiga, mavzusiga, uning mazmuniga hamda oʻtkazish sharoitlariga bogʻliq. Agar telekommunikatsiya loyihasi tadqiqiy loyiha boʻlsa va u turli bosqichlarda oʻtkazilsa, loyiha umumiy natijasining samaradorligi bosqichlarni qay darajada toʻgʻri tashkil etilganlik darajasiga bogʻliq boʻladi. Bunda baholash aniq baho yoki ball orqali qoʻyilishi shart emas. Agar loyiha mashgʻulot vaqtida tashkil etilayotgan boʻlsa, turli ragʻbat usullari yoki yoʻnaltiruvchi koʻrsatmalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, “Hammasi toʻgʻri, davom eting”, “Bu yerda toʻxtab, oʻylab koʻrish kerak”, “Negadir mos kelmayapdi, maslahatlashib, muhokama qilib koʻring” va boshqa shu kabi koʻrinishlarda.

Loyihani tashqi baholashda quyidagi omillar hisobga olinadi: ilgari surilgan muammoning dolzarbligi va ahamiyati, oʻrganilayotgan mavzularning bir-biriga mosligi; foydalaniladigan tadqiqot uslublari va olingan natijalarni qayta ishlash usullarining mosligi; har bir loyiha ishtirokchisining shaxsiy imkoniyatlariga mos holda faolligi;

qabul qilinadigan qarorning jamoaviy xarakterda bo‘lishi;
muammoga yetarlicha va chuqur kirib borilganligi, boshqa fan sohasi bilimlaridan foydalanish imkoniyati;

loyiha qatnashchilarini muomala va o‘zaro yordam hamda o‘zaro to‘ldirish va tuzatishlari;

qabul qilingan qarorlarning isbotlanishi, o‘z xulosalari va natijalarini dalillar bilan asoslay olishi;

loyiha natijalarini taqdim etish va bayon etish etikasi;

qatnashchilarni opponenlarning savollariga javob berish qobiliyatlari, javoblarning asoslanganligi va dalillar asosida isbotlanishi;

qabul qilingan qarorlar oqibatlarini tasavvur qila olish qobiliyatlari.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun taklif etilayotgan telekommunikatsiya o‘quv loyihalari modeli va texnologiyasi xorijiy analoglardan quyidagi indikatorlar bilan farq qiladi: O‘zbekiston OTM doirasidagi telekommunikatsiya o‘quv loyihada barcha amallar davlat tilida amalga oshiriladi; platformaga xalqaro telekommunikatsiya o‘quv loyihalariga bog‘lanish uchun o‘zbekcha-ruscha-ingilizcha lug‘at o‘rnatiladi; telekommunikatsiya o‘quv loyihalari O‘zbekiston oliy ta’lim davlat standarti va malaka talablari hamda fan dasturlari talablaridan kelib chiqib yaratiladi;

talabalar faolligini ko‘rsatuvchi indikator o‘rnatiladi;

chet tilida tashkil etiladigan xalqaro telekommunikatsiya loyihalar uchun platformaga og‘zaki nutq va o‘qishni rivojlantirishga mo‘ljallangan onlayn mustaqil o‘rganish sahifasi yaratiladi.

XULOSALAR.

Kredit tizimida talabalar mustaqil ta’limi uchun O‘zbekiston OTMlari doirasida faoliyat yurituvchi telekommunikatsiya o‘quv loyihalarining modeli va texnologiyasi asoslanadi, uning platformasi yaratiladi hamda telekommunikatsiya o‘quv loyihalaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rakhimov O. D., Rakhimova D. O. (2021). Educational quality in the era of globalization //Проблемы науки. №. 1. – S. 36-39.
2. Telekommunikatsionnye proyekty: organizatsiya i provedeniye. [Elektron resurs]. [URL:https://studbooks.net/1872436/pedagogika/telekommunikatsionnye_proekty_organizatsiya_provedenie](https://studbooks.net/1872436/pedagogika/telekommunikatsionnye_proekty_organizatsiya_provedenie)
3. Polat, Ye.S. (2000). Pedagogicheskiye texnologii XXI veka / Ye.S.Polat // Sovremennyye problemy obrazovaniya. - Tula, - 324 s.
4. Kasatkina N. E., Gradusova T. K., Jukova T. A. (2011). Sovremennyye obrazovatelnyye texnologii v uchebnom protsesse vuza. – Kemerovo: GOU “KRIRPO”, – 237 s.

5. Polat, Ye.S. (2000). Tipologiya telekommunikatsionnykh proyektov / Ye.S.Polat // Nauka i shkola. № 4. - 13-25.
6. Raximov O.D., Ro‘ziyev X.J., Murodov M.O. (2016). Ta’lim sifati va innovatsion texnologiyalar. /Toshkent: “Fan va texnologiyalar”nashriyoti, - 208b.
7. Telekommunikatsionnye proyekty. [Elektron resurs]. URL: https://ozlib.com/818364/informatika/telekommunikatsionnye_proektyO‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O‘zbekiston, 2019 //http://www.lex.uz

